



## SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI O'RNI

**Uktamov Xusniddin Faxriddinovich**

*ISFT instituti Biznes boshqaruvi kafedrası mudiri,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

## THE ROLE OF INFORMATION SECURITY IN ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

**Uktamov Khusniddin Fakhriiddinovich**

*Head of the Department of Business Administration, ISFT Institute,  
Doctor of Economics (DSc), Associate Professor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda axborot xavfsizligini o'rni keng yoritib berilgan. Qolaversa, axborot texnologiyalari bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni hisobga olgan holda korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilishga kompleks yondashuv ham ishlab chiqilgan. Jahon amaliyotida zamonaviy sanoat korxonasining xavfsizligi bir qator kompleks vazifalarni hal etish orqali ta'minlanadi, ya'ni: birinchidan, korxonaning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi ishlab chiqilishi va aniq qarorlar qabul qilinishi lozim; ikkinchidan, jinoiy unsurlar, insofsiz raqobatchilar va boshqa tahdid manbalarini, jumladan, boshqaruvdagi malakasizlik, iqtisodiy inqirozlar hamda ijtimoiy keskinlikni o'z vaqtida aniqlash muhim ahamiyatga ega; uchinchidan, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar hamda axborot makonidagi xavf va tahdidlar muntazam baholab boorish zarurati ilmiy asoslangan.

**Abstract:** This article extensively discusses the role of information security in ensuring the economic security of industrial enterprises. In addition, a comprehensive approach to solving the problem of ensuring the economic security of an enterprise, taking

into account organizational and technical measures in the field of information technology, has been developed. In world practice, the security of a modern industrial enterprise is ensured by solving a number of complex tasks, namely: firstly, it is necessary to develop an economic security strategy aimed at protecting the interests of the enterprise and make specific decisions; secondly, it is important to identify criminal elements, dishonest competitors and other sources of threats in a timely manner, including incompetence in management, economic crises and social tensions; thirdly, the need for a systematic assessment of qualitative and quantitative indicators of financial stability, as well as risks and threats in the information space is scientifically justified.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonalari, axborot texnologiyalari, iqtisodiy xavfsizlik, qaratilgan iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi, raqobatchilar.

**Keywords:** industrial enterprises, information technologies, economic security, focused economic security strategy, competitors.

### **Kirish**

So'nggi yillarda korxonalar iqtisodiy xavfsizligida korxonaning moliyaviy holatiga sezilarli zarar yetkazishi mumkin

bo'lgan ko'plab axborot tarkibiga ega global axborot makoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, agar tijorat tashkiloti muhim ichki axborotning 20 foizdan ortig'i chiqib ketishiga yo'l qo'ysa, u 100 ta bankrotlikdan 60 tasida chiqib ketadi. Shundan kelib chiqib, axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimini qurishda axborotning texnik kanallar va ruxsatsiz kirish orqali chiqib ketish xavfini hisobga olish, ularni kamaytirish uchun katta mablag' sarflash zarur. Umuman olganda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, shu jumladan, Internetga yo'naltirilgan va ma'lumotlarni simsiz kanallar orqali uzatish, axborotni boshqarish vositasi sifatida, axborot texnologiyalari bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni hisobga olgan holda korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilishga kompleks yondashuvni talab qiladi [1].

Ma'lumki, sanoat korxonalarida ham ma'lumot tarqalishining eng keng tarqalgan yo'llaridan biri – xizmat hujjatlariga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lishdir. Aksariyat korxonalarda hujjatlarni ro'yxatga olish va saqlash tartibi tanqidga dosh berolmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axborot texnologiyalari biznes ma'lumotlarini noqonuniy tarqatish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Jahonda yirik kompaniyalarning raqobatchilar tomonidan telefon so'zlashuvlarini eshitib turish va simsiz tarmoqlarda ovozli xabarlarni ushlab qolish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlovchi HTV uskunalarining informativ qo'shimcha elektromagnit nurlanishlarini buzg'unchilar tomonidan ushlab qolinishi natijasida nutq axborotining chiqib ketishidan ham korxonalar jiddiy zarar ko'rmoqdalar.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga zarar yetkazuvchi omillar turlicha bo'lishi

mumkin. Ular raqobatchilarning insofsiz harakatlari, hamkorlar, buyurtmachilar va yetkazib beruvchilarning shartnoma majburiyatlarini bajarmasligi, moliyaviy hisob-kitoblarda kechikishlar yoki buzilishlar, shuningdek, korxonada tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirishdagi kamchiliklar va xodimlarning malakasizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiyotdagi inqirozli hodisalar, bozor konyunkturasining keskin o'zgarishlari, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar ham korxonada faoliyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi xavflar ichki va tashqi omillar sifatida namoyon bo'ladi va ular korxonada xavfsizlik darajasini bevosita belgilab beradi [2].

Boshqaruv sohasida esa samarali qarorlar qabul qilgan xodimlarni rag'batlantirish hamda iqtisodiy xavfsizlik qoidalariga rioya etmagan hollarda javobgarlik choralarni qo'llash mexanizmlarining ishlashi muhimdir. Shu bilan birga, profilaktik choralarni kuchaytirish, qo'riqchilarning kasbiy mahoratini oshirish va rahbariyat hamda xodimlarning jismoniy xavfsizligini ta'minlash ham korxonada iqtisodiy xavfsizligi tizimining ajralmas qismi hisoblanadi [3].

Axborot xavfsizligi — axborotga ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal konsepsiya ma'lumotlar qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar (masalan, elektron yoki jismoniy) amal qiladi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli, qo'llashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir. Bunga, birinchi navbatda, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, tahdid manbalari, zaifliklar, potensial ta'sirlar va

**Axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi korxonaning maxsus axborot tizimini ruqsatsiz foydalanishda ma'lumotlarning chiqib ketishidan himoya qilish vositalari va qurilmalari**

Foydalanishni cheklashning dasturiy-apparat vositalari	Antivirus himoya vositalari va tizimlari	VPN-1 Gateway turidagi dasturiy mahsulotlar
VPN-shlyuz bilan birgalikda tarmoqlararo ekranlash (N3)	Uzatilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish va yaxlitligini ta'minlash vositalari	Ruqsat etilmagan harakatlarni blokirovka qilish, signalizatsiya va ro'yxatga olishning dasturiy vositalari
Xavfsizlik monitorlari, "Proxy-serverlar"		
Autentifikatsiya va identifikatsiya vositalari	Axborot xavfsizligi auditi vositalari	Dasturiy-matematik ta'sirlardan himoya qilish tizimi
Kriptohimoya vositalari	Buzilish va xatolardan himoyalash vositalari	Kirishlarni aniqlash va oldini olishning dasturiy vositalari

**1-rasm. Korxonada axborot tizimlarida aylanayotgan axborotni TK bo'yicha sizib chiqishdan himoyalash vositalari va qurilmalari**

mavjud xavflarni boshqarish imkoniyatlarini aniqlaydigan ko'p bosqichli xavflarni boshqarish jarayoni orqali erishiladi[4]. Bu jarayon xavflarni boshqarish rejasining samaradorligini baholash bilan birga olib boriladi.

**Material va metod**

Yuridik shaxslarning axborot xavfsizligi kafolatlari O'zbekiston Respublikasining 11.09.2014 yildagi O'RQ-374-son "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2018 yildagi "Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 707-son qarori va boshqa normativ hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan[5].

O'zbekiston Respublikasining 11.09.2014 yildagi O'RQ-374-son "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, tijorat siri deganda axborotning maxfiyligi tushuniladi, bu "uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalarda hamda boshqa

sohalarda tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot mulkdori uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi".

Maxfiy axborotni mustaqil ravishda ishlab chiqaradigan yoki qonuniy asosda qo'lga kiritadigan korxonalar uni tijorat siri sifatida belgilash huquqiga ega. Tadbirkorlik subyekti o'z faoliyatida tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiylik rejimini mustaqil ravishda aniqlash, ulardan foydalanish va uchinchi shaxslarga berish shartlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tijorat sirini saqlash, uni ehtimoliy raqobatchilardan yashirish korxonaga muhim iqtisodiy ustunlik beradi, chunki bu raqobatchilarning strategik qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi va korxonaga bozor sharoitida qo'shimcha afzallik taqdim etadi.

Failure Mode and Effects Analysis (FMEA) konsepsiyasi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. U xatoliklar, nosozliklar va tizimdagi zaifliklar kelib chiqish ehtimolini

oldindan aniqlab, ularning oqibatlarini baholashga va mos ravishda profilaktik

Boshqa bir guruh xorijiy olimlar AIAG va VDA (2019) tomonidan ishlab

**Korxonada axborot tizimlarida aylanayotgan axborotni texnik kanallar orqali sizib chiqishdan himoyalash vositalari va qurilmalari**

<p>Nutqiy axborotni akustik va vibroakustik kanallar orqali sizib chiqishdan himoya qilish vositalari va choralari (vnutkizolatsion materiallar, shovqin generatorlari, akustik belgilarni aniqlash uskunalari, xonaga ruxsatsiz kirishni istisno qiluvchi tashkiliy choralar)</p>	<p>SVT monitor ekranining ko'rinish ma'lumotlarini himoya qilish choralari va vositalari (binolarda pardalar, jalyuzlar, pardalar, drapirovkalar, plyonkalar qo'llash hisobiga monitor ekranida aks ettiriladigan matnli va grafik ko'rinish ma'lumotlarini ko'rishni istisno qilishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar)</p>	<p>Maxfiy axborotni mustaqil ravishda ishlab chiqaradigan yoki qonuniy asosda qo'lga kiritadigan korxonalar uni tijorat siri sifatida belgilash huquqiga egadir.</p>
<p>Axborotni qo'shimcha elektromagnit nurlanishlar kanali bo'yab sizib chiqishdan himoya qilish vositalari (ekranlovchi va radio yutuvchi vositalar, niqoblovchi shovqin generatorlari, begona o'tkazgichlar va ulash liniyalaridagi chiziqli shovqin generatorlari, IT uskunalari elektr ta'minoti va yerga ulash maqsadida)</p>	<p>Nutqiy axborotni akustoelektrik o'zgartirishlar kanali bo'yicha sizib chiqishdan himoyalash vositalari (fazoviy shovqin generatorlari, elektr ta'minoti, yerga ulash va AT uskunasi chiquvchi liniyalar maqsadida chiziqli shovqin generatorlari)</p>	<p>Axborotni yuqori chastotali nurlanish va tiqishtirish kanallari bo'yicha sizib chiqishdan himoya qilish vositalari (ekranlovchi va radioni yutuvchi vositalar, niqoblovchi shovqin generatorlari, begona o'tkazgichlar va ulash liniyalarida chiziqli shovqin generatorlari, AT uskunalari elektr ta'minoti va yerga ulash maqsadida)</p>

**2-rasm. Axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi korxonaning maxsus axborot tizimini ruxsatsiz kirishda ma'lumotlarning chiqib ketishi**

choralar ishlab chiqishga yordam beradi. Bu jarayon orqali nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati oshadi, balki korxonaning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va strategik xavfsizligi ham mustahkamlanadi[6].

Xorijiy olim Stamatis (2003) tomonidan taqdim etilgan konsepsiyada FMEA nafaqat texnik vosita, balki tashkilot ichida doimiy takomillashuv madaniyatining asosiy bo'lagi sifatida qaraladi. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, FMEA faoliyatda mavjud xavflarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni tizimli ravishda boshqarishni va natijaviylikni oshirishni ta'minlaydi. Bu esa korxonada resurslarining optimal taqsimlanishi va ortiqcha xarajatlarning kamayishiga olib keladi, ya'ni iqtisodiy xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar**

chiqilgan yangi metodologik yondashuvda RPN (Risk Priority Number) o'rniga Action Priority (AP) joriy etilgani xavf tahlilini yanada aniqroq va samaraliroq qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarida real sanoat holatlari asosida moslashtirilgan bu model korxonada mavjud bo'lgan noaniqlik va tahdidlarni minimallashtirish orqali iqtisodiy zarar ehtimolini kamaytiradi.

Texnik kanallar orqali va ruxsatsiz kirishda axborotni sizib chiqishdan himoya qilishning asosiy vositalari va vositalarining ushbu ro'yxatlari mos ravishda 1-rasmlarda keltirilgan.

Korxonada ishlab chiqarish faoliyati korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus tuzilmani yaratishni nazarda tutadi, u korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki

tahdidlarni tahlil qilish, moliyaviy ma'lumotlarni o'rganish, moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish, TXI bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar va vositalarni ishlab chiqishni amalga oshiradi[7].

Sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi uning asosiy obyektlariga nisbatan amalga oshiriladigan maqsadli harakatlar orqali shakllanadi. Ushbu obyektlarga foyda hajmi, moliyaviy resurslarning manbalari va tarkibi, kapital va aktivlar tuzilmasi, pul oqimlari, investitsion faoliyat, moliyaviy xavflar, shuningdek, axborot chiqib ketish xavfi kiradi. Iqtisodiy xavfsizlik xizmatining roli – bu omillar bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshirish, xavf yoki tahdid yuzaga kelganda tezkor choralar ko'rish hamda holat tahlili asosida qarorlar qabul qilish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlab, ularning bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Bu xizmat korxonaning barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishini kafolatlovchi muhim boshqaruv subyektidir[8].

Korxonada xavfsizlik xizmati, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni minimallashtirish maqsadida korxonada, uning xodimlari va bo'linmalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining barcha quyi tizimlarining kelishilgan ishlashini ta'minlash maqsadida nazorat va muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshirishi kerak[9].

### **Munozara**

Shuni ham ta'kidlash kerakki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning subyektiv qiyinchiliklari mavjud bo'lib, ular tadbirkorlik tuzilmasining o'zida ko'pincha korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning amaldagi mexanizmi doirasida hisobga olinishi mumkin bo'lmagan qarama-qarshi guruh va shaxsiy manfaatlar mavjudligi bilan

bog'liq. Shu munosabat bilan korxonaning iqtisodiy xavfsizlik xizmatining muammosi korxonada iqtisodiy faoliyatining barcha subyektlari uchun bir xil darajada maqbul bo'lgan sohalarni topishdir[10].

Shunday qilib, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tahlillar bir qator muhim xulosalarni keltirib chiqardi.

### **Xulosa va takliflar**

Birinchiidan, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda axborot texnologiyalarining, jumladan, Internet tarmoqlaridan va simsiz ma'lumot uzatish kanallaridan foydalanish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini shakllantirish zarurati mavjud. Bunday mexanizm doirasida axborotni texnik himoya qilish bo'yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmuini qo'llash, texnik kanallar orqali ma'lumotlarning chiqib ketishini yoki ruxsatsiz foydalanilishini istisno etish uchun maxsus vositalar va asboblardan foydalanish muhimdir. Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan faol foydalanadigan korxonalarda axborotni texnik himoyalash tizimini joriy etish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni safarbar etishni talab etadi.

Ikkinchiidan, axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmining asosi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning obyektiv tamoyillariga tayanadi. Bunda turli usullar, texnik vositalar, dasturiy instrumentlar hamda axborot-tahliliy ta'minotning tizimli kombinatsiyasi qo'llaniladi. Sanoat korxonalarida samarali iqtisodiy xavfsizlik mexanizmini amalga oshirish ularning global axborot makoniga integratsiyalashuv darajasiga hamda hisoblash tarmoqlari va simsiz ma'lumot uzatish kanallarida aylanadigan axborotning himoyalash darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois,



korxonalar rahbariyati mazkur masalalarga yetarli e'tibor qaratishi zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Molchanov S.S. Upravlencheskiy uchet za 14 dney. Ekspress – kurs / S.S.Molchanov – 2-e izd. ispravlennoe. – M.: Eksmo, 2009. – 544 s.
2. Morozko N.I. Adaptivnie resheniya v antikrizisnom upravlenii malimi organizatsiyami // Audit i finansoviy analiz. 2007. № 2. С. 58-67.
3. Munpyan V.I. Ekonomichna bezpeka Ukrashi / V.I. Munpyan. — K.: KV1S, 1999. — 464 s.
4. N.X.Jumayev, D.A.Raxmonov, D.M.Azimova. O'zbekiston davlat qarzi va iqtisodiy globallashuv. Monografiya. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 164 bet.
5. Narzullaeva D.K. Uchebno-metodicheskiy kompleks po dissipline «Bezopasnost v industrii – servisa». – T.: TGEU.- 434 s.
6. Osnovi ekonomicheskoy bezopasnosti (gosudarstvo, region, predpriyatie, lichnost): ucheb. -prakt. posob. / V.I. Vidyapip [i dr.] / iod red. K. L. Oleynikova. - M.: Biznes-shkola «Intel-sintez», 1997. - 278 s.
7. Panskov V.G. Byudjetnaya reforma: nereshennye voprosy nalogovogo obespecheniya finansovix potrebnostey sub'ektov federatsii i munitsipalnih obrazovaniy // Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal. 2005. № 9-10. S. 26-32.
8. Papexin R.S. Faktori finansovoy ustoychivosti i bezopasnosti predpriyatiya. / R.S. Papexin: avtoref.dis. [na zhdob. nauk. stup. kand. ek. nauk]. — Volgograd, 2007. — 21 s.
9. Доценко Д.В. Экономическая безопасность: методологические аспекты и составляющие / Д. В. Доценко // Аудит и финансовый анализ. - 2009. - № 4.
10. Баутов А. Эффективность защиты информации [Текст] / А. Баутов [Электронный ресурс]. - 2013. – Режим доступа: <http://www.BRE.ru>.